

AGROSANOAT INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

M. Saypidinov

Andijon mashinasozlik instituti “Iqtisodiyot”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Saydalieva Sayyoraxon Murodil qizi

Andijon mashinasozlik instituti “Iqtisodiyot”
yo‘nalishi 3 kurs 09-20 guruh talabasi.

Xabibullaev Xalillo Xamidillo o‘g‘li

Andijon mashinasozlik instituti “Iqtisodiyot”
yo‘nalishi 4 kurs 317- guruh talabasi.

ANNOTATSIYA

Maqlada sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida integratsiya jarayonlari kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Integratsiya jarayonlari bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zi. Integratsiya jarayoni, sanoat ishlab chiarish, agrosanoat majmuasi, ishlab chiqarish.

Integratsiya-juda keng ma’nodagi tushuncha. Bugungi kunga kelib kishilar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, zarur. Integratsiya nima? - «Integratsiya»-lotincha «integration» so‘zidan olingan bo‘lib, «integr» to‘liq yaxlit, bir butun degan ma’nolar anglatadi; Integratsiya-o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan sistemalarda bo‘lishi mumkin – bu holda ular sistema butunlik

darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko‘taradi. Integratsiya jarayonlari oldin bog‘lanmagan elementlarni biriktirish asosini hamda shakllangan sistemalarda ham yuz berib, natijada sistemanı bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o‘rtasida aloqadorlikka murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo‘ladi.

Gerbert Spenser (1820–1903) falsafasida sochilgan, sezilmaydigan holatning ichki jarayonlarini sekinlashuvi natijasida zichlashishi va seziladigan darajaga o‘tishi tushunilsa, dezintegratsiya – buning aksi, ya’ni zich joylashgan narsaning harakat tezlashishi natijasida sochilgan holatga o‘tishidir. Spenser "integratsiya» so‘zini, ko‘pincha, agregatsiya tushunchasi bilan teng ma’noda qo‘llaydi. Uning ta’limotiga ko‘ra, Quyosh sistemasi, sayyoralar, organizm, millat rivoji integratsiya va dezintegratsiyaning birin–ketin o‘rin almashinuvlari natijasidir.

Boshqa bir olimlarning fikricha: “Agrosanoat integratsiyasi qishloq xo‘jalik xomashyosini ishlab chiqarishda, uni tayyorlashda, qayta ishlashda, saqlashda, tashishda, sotishda, qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqishda va ularga xizmat ko‘rsatishda ishtirok qiluvchi xalq xo‘jaligi tarmoqlarining o‘zaro bog‘langan yig‘indisi shaklida namoyon bo‘ladi. Bu yig‘indi respublika agrosanoat majmuasini (ASM) tashkil qiladi⁴⁴”.

Shundan kelib chiqib agrosanoat majmuasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “Agrosanoat majmuasi – bu ishlab chiqarishning bir butun zanjirli texnologik ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan, qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqaruvchi vositalarini ishlab chiqarish, unga xizmatlar ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hamda ularni iste’molchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi tarmoqlarning yagona maqsad yo‘lida o‘zaro integratsiyalashuvi va yaxlit bir tizimga birlashuvini aks ettiruvchi tuzilmadir”.

“Agrosanoat integratsiyasi” terminining iqtisodiy mazmunini ochib berishdan oldin agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilmasi va unga kiruvchi tarmoqlar xususida

⁴⁴ R.H.Husanov, YU.T.Dodoboyev, D.YU.Dodoboyev. Agrosanoat kompleksi iqtisodièti. O’quv qo’llanma. Quvasoy TO’ICHM. Toshkent, 2003. -558 b.

to‘xtalib o‘tish joiz. Ta’kidlab o‘tish joizki, ASM tarkibi juda keng qamrovli va murakkab tuzilma bo‘lib, ko‘plab ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalar hamda tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. Ammo, fan-texnika va texnologiyalar taraqqièti ta’siri ostida ASM tarkibida oldin mavjud bo‘lmagan butunlay yangi tipdagi tarmoqlar va sohalar vujudga kelishi va rivojlanishi, ayrimlari esa sohani tark etishi ham mumkin. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash klasterlari, avvalo, shu tarmoq ichidagi raqobatga mahalliy va jahon bozorlarida bardosh beradi. Shuning uchun iqtisodiyotni innovatsion taraqqiy ettirishda, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanishning an’anaviy usullari yetarli darajada foyda bera olmayotgan hozirgi davrda, klaster nazariyasini amaliyotga tatbiq etish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha agrosanoat integratsiyasi - bu aholining oziq-ovqat mahsulotlariga ehtièjini qondirish maqsadida agrar sohani ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minalash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, sotish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining yagona tashkiliy-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimga birlashuvi hamda o‘zaro bog‘langan va manfaatli xo‘jalik aloqarini o‘rnatish jaraènidir. Bu jarayonda yagona zanjirli tizimga birlashgan texnologik jarayonning ma’lum bir qismini ixtisoslashgan tarmoqlar yoki korxonalar amalga oshiradi va keyingi texnologik bosqichga tayyorlab beradi.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish usullaridan biri sifatida klaster usulidan keng foydalanadi. Klaster strategiyasi yevropa Ittifoqi tomonidan keng targ‘ib qilinadi. yevrokomissiya ittifoq hududida klaster rivojlanishini yanada qo‘llab-quvvatlamoqda.

To‘liq integratsiyaga birdan erishib bo‘lmaydi. Iqtisodiy tuzilmalarning turliligi, so‘nggi bosqichga erishish uchun, bundan avvalgi bosqichlarni muvaffaqiyat bilan bosib o‘tilishini taqazo qiladi. Shuning uchun bir bosqichdan o‘tayotganda, keyingi bosqichning shartlariga xam tayyorlanish lozim bo‘ladi⁴⁵.

«Integratsiya» atamasi Farbiy yevropa mamlakatlari davlatlararo institutlarni yarata boshlaganda, shuningdek iqtisodiy siyosatni koordinatsiyalash va savdo

⁴⁵ Balassa.Bela " Types of Economic Integration" Economic Integration..., Ed. Machlub.,17-40p.

erkinligini ta'minlash maqsadida iqtisodiy birlashmalarni tuzish vaqtida xalqaro munosabatlarda ishlatila boshlandi. Shunisi qiziqarlik, yevropa integratsiyasini taxlil qiluvchi olimlar orasida ushbu mintaqa doirasidagi davlatlar integratsiyasiga nisbatan shu kungacha yagona bir yondoshuv ishlab chiqilmagan. Lekin shu bilan birga, ularning xammasi integratsiya ijobiy xodisa ekanligini, shuningdek bu «xamma ishtirok etuvchi tomonlar uchun bir qator ustunliklarga ega bulishga qaratilgan jarayon»⁴⁶ ekanligini e'tirof etishgan. Aynan yevropa mintaqasidagi davlatlarga nisbatan Jan Monne quyidagicha fikr bildirgan: «Agar mintaqa davlatlari o‘z milliy suverenitetlariga ustuvor yo‘nalish sifatida qarab rivojlanadigan bo‘lishsa, yevropada xech qachon tinchlik bo‘lmaydi. Chunki bunday rivojlanish davlatlarning ustunlik qilish siyosatiga va milliy iqtisodiy protektsionizmiga olib keladi. yevropa davlatlari yolgiz xolda o‘z xalqlari uchun yetarli darajadagi turmush sharoitini yaratib bera olmaydilar. Zaruriy rivojlanish dinamikasiga faqat shu narsa bilan erishish mumkinki, bunda mintaqa davlatlari federatsiya yoki boshqa bir «Evropa konfederatsiyasiga» birlashadilar, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy yagonalikni keltirib chiqaradi»⁴⁷.

Moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bir tomondan, moddiy resurslar (xom ashyo, asbob-uskunalar va hokazolar)dan va ikkinchi tomondan, inson resurslaridan, ya’ni kasb-malakalari va bilimlariga ega bo‘lgan xodimlardan iborat bo‘ladi. Boshqacharoq qilib aytganda, mamlakat aholisining bir qismi bo‘lgan inson resurslari moddiy resurslar bilan bir qatorda iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ham namoyon bo‘ladi. Biroq bu omillar o‘z xususiyatlariga qarab bir-biridan muhim belgilari bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. T.Irmatova. Korxonalarda mehnat unumdarligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlashni takomillashtirish yo‘llari.//Iqtisodiyot va innovatsion

⁴⁶ Kizima S.A., Babkin A.I. Sistemnye aspekty organizatsii i funktsionirovaniya yevropeyskogo soyuzu // yevropeyskiy soyuz: istoriya, politika, ekonomika, pravo. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya (17-18 dekabrya 1997 goda, Minsk). Sb. nauch. Tr. Mn.: Belgo-suniversitet, 1998. S.106.

⁴⁷ Kohl H., Die Europaische Gemeinschaft - Bilans und Perspective // Europe - unzere Zukunft. Herford. 1989 - S.21

texnologiyalar.Ilmiy elektron jurnal.2015y №1

2. Z.Xakimov. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. TDIU. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2018 y. 20 b.
3. Г.А.Зуфарова. Обеспечение занятости трудовых ресурсов - как социальная защита. [Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов](#)
Учредители: Редакция Журнала научных публикаций аспирантов и докторантов
ISSN: 1991-3087. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=24168026>